UO‘K 821.512.133

UCH OG‘AYNI ARXETIP OBRAZI VA INITSIATIYA MOTIVLARI

F.O. Mamtaliyeva

Maqolada uch og‘ayni/og‘a-ini arxetip sxemasidagi initsiatsiya motivi ichidagi ayrim funksiyalar – sarandipizm, mukofot motivlari haqida fikr yuritilgan. Mazkur motivlarning qahramon hayotidagi ahamiyati va xalq ertaklaridagi genezisi o‘rganilgan. Shuningdek, Odil Yoqubovning “Er boshiga ish tushsa...”, “Oqqushlar, oppoq qushlar”, Pirimqul Qodirovning “Uch ildiz” romanlari, “Usmon Azimning “Bir qadam yo‘l” dramasidagi variantlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *uch og‘ayni arxetip obrazi, initsiatsiya, sarandipizm, go‘zal malika, soxta qahramon, arxetip, arxetipik motiv*.

В статье рассматриваются отдельные мотивы инициации в архетипической схеме трёх братьев, в частности сарандипизм и мотив награды. Исследуется их значение в судьбе героя и происхождение в фольклорной традиции народных сказок. На материале романов Адыла Якубова «Трудно быть мужчиной», «Белые-белые лебеди» и Пиримкула Кадырова «Три корня», а также драмы Усмана Азима «Всего один шаг» анализируются варианты трансформации архетипических мотивов в художественной литературе.

Ключевые слова: *архетип трёх братьев, инициация, сарандипизм, мотив награды, архетипический мотив, фольклорная традиция, герой, ложный герой.*

Kirish

Karl Gustav Yung ma’ruzalarida arxetiplarning psixik shakllar ekanligiga urg‘u bergan holda ta’kidlab o‘tadiki, “arxetip – bir xil turdagi son-sanoqsiz tajribalarning ruhiy qoldiqlari... Bu obrazlarning har birida inson psixologiyasi va taqdirining kichik bir parchasi, tariximizda bir xil, uzoq davrlar takrorlanib kelgan quvonch va qayg‘ularning qoldiqlari bor” [1. B. 81]. K.G.Yungning arxetiplar mif va ertaklarda keng namoyon bo‘lishi haqidagi qarashlari jahon adabiyotshunosligida arxetip obraz va sxemalar genezisini eng qadimgi miflar va ertaklardan qidirishga zamin yaratdi. Zamonaviy o‘zbek nasridagi uch og‘ayni arxetip sxemasini tadqiq etar ekanmiz, ayrim initsiativ motivlar tadqiqini xalq ertaklarida mavjud motivlar bilan muqoyasa qilishga ehtiyoj sezamiz.

Materiallar va usullar

Maqolada qo‘yilgan masala – initsiatsiya motivi ichidagi ayrim funksiyalar – sarandipizm, mukofot motivlari Odil Yoqubovning “Er boshiga ish tushsa” [5], “Oqqushlar, oppoq qushlar...” [12], Pirimqul Qodirovning “Uch ildiz” [10] va “Qora ko‘zlar” [11] romanlari hamda Usmon Azimning “Bir qadam yo‘l” [13] dramasi doirasida ko‘rib chiqildi. Mazkur asarlardagi initsiativ motivlarni tadqiq etishda struktur, mifopoetik, qiyosiy-tipologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama

Rus olimi Y.Meletinskiy initsiatsiyaning doimiy belgilari qatorida qahramonning jumboq yechimiga javob topa olishini ham sanab o‘tadi va Edipning Sfinks jumbog‘ini yecha olganini misol sifatida keltiradi [2. B. 21]. Demak, initsiatsiya sinovi nafaqat qahramonning jismoniy kuch-qudrati, balki aqliy-ruhiy jihatdan yetuklik darajasini belgilashga ham yo‘naltirilar ekan. Xalq ertaklarida uch og‘a-ini arxetip

obrazi bilan bog‘liq bir motiv borki, g‘arbda uni “sarandipizm” deb atash urfga kirgan. Sarandipizm (*serendipity*, *серендипность*) syujet motivi hisoblanib, Horas Valpol uni “*aql-idrok va tasodif orqali izlanmagan narsani topish qobiliyati*” [3. B. 1037] sifatida talqin qiladi. Mazkur motiv bugungi kunda G‘arb kundalik hayotida kutilmagan joydan kelgan omadni ifodalashda keng qo‘llanadi.

Motiv genezisi G‘arbda keng ommalashgan “Sarandib shohining uch o‘g‘li” Sharq ertagiga borib taqaladi deb aytilsa-da, aksar xalqlar folklorida turli variantlari mavjud. Mazkur ertakda uch og‘a-ini o‘zining zehni va kuzatuvchanligi bilan bir qator jumboqlarni yechish orqali maqomi yuksaladi. “Uch og‘ayni botirlar”da sarandipizm syujet halqalaridan biri sifatida qo‘llangan bo‘lsa, “Aqlli, idrokli, zehnli”, “Uch og‘ayni taxminchi” ertaklari syujeti mazkur motiv asosiga qurilgani bilan xarakterlidir. Xususan, “Uch og‘ayni botirlar” ertagida to‘ng‘ich botirdan boshlab aytilgan “qo‘zining it emib katta bo‘lganligi”, “shinnidan odam isi kelishi” (o‘rtancha botir), “nonni tanlagan kishining otasi novvoy bo‘lganligi” (kenja botir) haqidagi taxminlarning mutlaq to‘g‘ri ekanligi botirlarni podshoh oldida zakovat egasi sifatida yuqori pog‘onaga chiqaradi. Bizningcha, ertakda qahramonlar ko‘rsatgan jismoniy qudrat (sherni, ajdarni o‘ldirish, qaroqchilarni mahv qilish)dan ko‘ra mazkur harakat tinglovchilarda ularga nisbatan yanada ko‘proq xayrixohlik uyg‘onishiga sabab bo‘ladi. Botirlarning kuzatuvchan va hushyorligi ularga mukofot olib keladi. Karlo Ginzburg uch og‘a-inini “iz o‘quvchilar” deb talqin qiladi va motivning yozma adabiyotda qo‘llanish tadrijini quyidagicha belgilaydi: *Sarandip – Zadig – Edgar Po – Gaberio – Artur Konan Doyl* [4. B. 217].

Odil Yoqubovning “Er boshiga ish tushsa” romanida uch og‘aynining dastlabki initsiatsiya sinovidan o‘tish bosqichi tasvirlangan bo‘lib, sarandipizm motivi mazkur motivning kichik halqasi sifatidagina ishtirok etadi. Shu jihatdan motivning ushbu romandagi varianti “Uch og‘ayni botirlar” ertagiga yaqin, lekin motiv subyektlari zamonaviy adabiy paradigmadagi Zadig yoki Sherlok Xolms kabi yorqin taassurot qoldirmaydi. Boshqa tomondan muallif qahramonning aql-zakovatini ikkilamchi planda tasvirlab, bosh masala – mehnat frontidagi qahramonliklarni markazga qo‘ygani uchun ham ushbu motiv asarda dominant motiv bo‘la olmaydi.

Demak, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, motiv yadrosini “tasodifiy omad” tashkil etadi. Romanda Akmalning otasi tomonidan yuborilgan maktub motivni syujetda reallashtiradi. Mehnat batalyoniga yuborilib, jarohat tufayli shifoxonada davolanayotgan Eshmat aka (Akmalning otasi) qishloq sovetidan ma’lumotnoma yuborilishini iltimos qilib *“….boshda Chavandoz yanglish yozganmi, bilmadik, biz Eshmat Mo‘minov bo‘lmay, Eshvoy Mo‘minov bo‘p ketibmiz. O‘zimiz ham uch-to‘rt yosh yasharib qopmiz*” [5. B. 142] deb yozadi. Mashrabning ikki og‘aynisi Qo‘chqor va Akmal deyarli mulohaza qilib o‘tirmaydi. Mashrab esa butun qishloqda Eshmat aka desa yosh-u qari birday taniydigan kap-katta odamning mehnat batalyoniga Eshvoy sifatida yuborilishidan shubhalanadi va o‘zi tasodifan guvoh bo‘lgan tundagi voqealarni birma-bir eslaydi. Mashrab boshliq og‘aynilar bug‘doy o‘g‘rilarini qo‘lga olish uchun “razvedka”ga chiqqan tunda Eshvoy Mo‘min o‘g‘irlangan bug‘doy yig‘iladigan hovlida bir ayol bilan suhbatlashadi. Ayolning “Menga qarang Eshmat aka!” deb mug‘ambirona kulishi, Eshvoyning “Bas!” deb qovoq uyishi voqeasi Mashrab ko‘z oldida jonlanib, u Eshmat aka aslida o‘zi borishga majbur bo‘lmagan ishchi batalyoniga Eshvoy Mo‘min o‘rniga hiyla bilan yuborilgan degan fikrga keladi (“Uch og‘ayni botirlar” ertagidagi podshohning asl otasi nonvoy bo‘lib chiqqani kabi!). Qishloqda batalyonga yuboriladiganlar ro‘yxati chiqqanda tarqalgan mish-mishlar fikrlarining qat’iylashuviga sabab bo‘ladi: “*Esingdami, qishda rabochiy batalyonga falonchilarni yozishibdi, deganda har xil gaplar tarqaluvdi. Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi. Mana endi bilindi*!” [5. B. 142].

Mazkur motiv Mashrabning ziyrakligini ko‘rsatish bilan birga, Ertoyevning tuban xarakterini ham ochib beradi. Ertoyevning amalidan foydalanib, aslida o‘ziga yaqin odam borishi to‘g‘ri kelgan joyga beshta farzandi bor sodda suvchini hujjatlarni qalbakilashtirish yo‘li bilan jo‘natib yuborganini anglagan yigitlar haqiqat uchun kurashga bel bog‘laydi. Gulchehraning o‘g‘irlab olib ketilishiga qarshi chiqish, jasorat ham ayni mazkur sinovdan keyin yuzaga keladi.

Motiv subyekti sifatida asosan Mashrabning ishtirok etishi ham bejiz emas. Avvalo, undagi og‘ir-bosiqlik, kuzatuvchanlik doimo qo‘l keladi. Qolaversa, Akmal va Qo‘chqordan farqli o‘laroq Mashrabda o‘z maqomini yuqorilash ehtiyoji juda kuchli bo‘lib, masala otasiga borib taqalar edi. Otasining haq yoki nohaq qamalganligi haqidagi jumboqni aniq anglab yeta olmayotgan, tinimsiz mehnati bilan xalqqa yordam bersa-da, arzimas sabab bilan “xalq dushmanining o‘g‘li” sifatida yerga urilishdan zada bo‘lgan o‘smir yigit o‘tgan voqea-hodisalarni aql tarozisi bilan o‘lchashga o‘rganib qoladi.

Uch og‘a-ini/og‘ayni arxetipi mavjud ertaklarda qahramon erishgan mukofotlar orasida go‘zal qiz/pari/malika obrazi uchraydiki, soxta qahramon hamisha unga egalik qilishga harakat qiladi. M.Sheraliyeva mazkur mukofotning qahramon uchun ahamiyati-

ni o‘rinli belgilaydi: “E’tibor berilsa, protagonist personaj shartni bajarib erishgan mukofotning antagonist personaj tomonidan tortib olinishi, o‘g‘irlab ketilishi epizodi xalq ertaklari syujetiga bejiz kiritilmaganini anglash mumkin. Aynan mukofot vositasida antagonist shartni, mushkul topshiriqni bajarganini, o‘z navbatida initsiatsiya jarayonini o‘taganligini isbotlamoqchi bo‘ladi” [6. B 76]. Bizningcha, ham soxta qahramonning mazkur harakati uning degradatsiyasini kuchaytiruvchi asosiy unsurdir.

V.Propp “Sehrli ertakning tarixiy ildizlari” kitobida keksaygan podshohning almashtirilishi unda tabiat bilan bog‘liq uyg‘unlikning yetishmasligi, sehrli iqtidorning yo‘qolishi haqida fikrlar bildirgan holda murakkab topshiriq, nikoh va hokimiyatning almashishi ajralmas komplekslardir [7. B. 334] degan xulosaga keladi.

Masalaga analitik psixologiya jihatidan yondashib aytsak, qizni qo‘lga kiritish qahramonning aqliy va jismoniy jihatdan yuksak pog‘onaga ko‘tarilishi, individuallashuvini ham bildiradi. Yungning izdoshlaridan biri Maria Luiza fon Frans “Uch pat” ertagini tahlil qilish asnosida “podshoh va uning uch o‘g‘li, ya’ni faqat to‘rt kishidan iborat oila mavjud ertaklarda qahramonning harakati oilada yetishmayotgan ayollik elementini to‘ldirishga qaratilishi” haqida yozadi [8. B. IV bob: P. 4].Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, ushbu funksiya uch og‘ayni arxetip sxemasidagi asosiy syujet motivlaridan biri degan xulosaga kelish mumkin.

Xalq ertaklarida mazkur arxetipik motivning ikki xil variantini uchratamiz:

a) uch og‘a-ini bir-biriga kontrastlanmasa, qahramon (ko‘pincha, kenja o‘g‘il) qo‘lga kiritgan qizni boshqa raqib (shoh) tortib oladi/tortib olishga urinadi (masalan, “Qilichqora”);

b) uch og‘a-ini paradigmasi a’zolari o‘zaro qarshilantirilsa, odatda, katta o‘g‘illar kenjadan go‘zal qizni tortib oladi/tortib olishga urinadi (masalan, “Bulbuligo‘yo, “Kenja botir”).

Zamonaviy nasrda har ikki motiv faol ekanligini ta’kidlash bilan birga ular turli variantlarda namoyon bo‘lishini qayd etish lozim. Xususan, ertakdagi tortib oluvchi podshoh roli o‘z davrining eng obro‘li amaldori yoki moddiy jihatdan ustun bo‘lgan qahramon sifatida aks etishi mumkin. Shuningdek, ayrim qahramonlik eposlaridagi singari aka-ukalar emas, otabolalar qarshilantirilishi ham mumkin. Semyon Babayevskiyning “O‘g‘il isyoni” romanida muallif hech bir kishining so‘ziga yurishni istamaydigan, yakkahokimlikka intilgan Ivan Kniganing davri o‘tib borayotgani, endi yoshlarning, xususan, navbati ekanligini ko‘ngil qo‘ygan ayoli Kseniyaning o‘g‘li Ivanga nisbatan hissiyotlari orqali ifodalaydi [9. B. 282].

1-jadval

Zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi uch og‘ayni arxetipik sxemasida mukofotga erisha olmagan personajlar va ularning maqomi

Asar nomi	Go‘zal qizga erisha olmagan personaj	Go‘zal qizni tortib olgan/ tortib olishga uringan soxta qahramon	Soxta qahramonning maqomi
“Er boshiga ish tushsa”	Akmal	Yodgorbek	Amaldorning o‘g‘li
“Uch ildiz”		Zokir	Fakultetning sobiq sekretari
“Oqqushlar, oppoq qushlar...”	Muzaffar, Fotih	Muzaffar, Fotih	Amaldor, amaldorning o‘g‘li
“Bir qadam yo‘l”	Jo‘ra, Shokir	Shokir	Badavlat “tadbirkor”

Odil Yoqubovning “Er boshiga ish tushsa...” romanida yuqorida tavsiflangan *a* syujet motivi yetakchilik qiladi. Akmalning Gulchehraga erisha olmasligi (Mashrab va Qo‘chqordan farqli) uning sinovdan muvaffaqiyatli o‘ta olmaganini ko‘rsatmaydi. Aksincha, ushbu funksiya o‘sha davr sharoitida amaldorlarning oddiy xalq vakillariga nisbatan ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘lganligi, mansabini suiiste’mol qilishini qoralash uchun kiritilgan. Gulchehrani o‘g‘irlab ketib to‘y qilishga urinish orqali Yodgorbek o‘z imkoniyatlarining uch yigitdan ancha balandligini isbotlashga urinadi. Otasi Xolmat chavandoz (bir vaqtlar u ham Qo‘chqorning onasini yo‘ldan urgan) mazkur vaziyatni o‘z foydasiga og‘dirib, o‘gay o‘g‘li Qo‘chqor va ikki og‘aynisining “aqlini kiritib qo‘yish”-ga urinadi.

Pirimqul Qodirovning “Uch ildiz” romanida asarning umumiy pafosini belgilaydigan uch asosiy ildizdan biri haqiqiy muhabbat sifatida ifoda etiladi: “*bu ildiz ham qanchalik chuqur bo‘lsa, kishi shunchalik balandga shox yoyishi mumkin, yer yuzida shunchalik mustahkam turishi mumkin bo‘ladi*” [10. B. 386]. Shu nuqtayi nazarga ko‘ra, personajlarning o‘zi yoqtirgan qiz muhabbatiga sazovor bo‘lishi yoki bo‘lmasligiga ayricha e’tibor beriladi. Uch kursdoshning ko‘ngil qo‘ygan qizlari bilan munosabatlari fakultet, jamoatchilik ishlaridagi ijtimoiy faolligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Romanda *b* syujet yetakchilik qilgani holda biroz o‘zgarishlar, ya’ni motiv transformatsiyasi kuzatiladi. Mahkam va Ochilga qarama-qarshi qo‘yilgan Zokir ulardan birining emas, balki aynan ikkala yigitdek ma’rifatli, halol boshqa bir yigit ko‘ngil qo‘ygan qizni tortib oladi. Xususan, Zokirning sevgan qiziga xiyla yo‘li bilan erishishi va oyoqosti qilishi Mahkam va Ochilning pok muhabbatiga tamomila zid edi. Jamoada muvaffaqiyat qozona olmagan, nomaqbul harakatlari oshkor bo‘lgan Zokir Faridaga erishish uchun qizga uning onasi orqali ta’sir etishga urinadi – jiyanini o‘qishga kirgizishga harakat qilish bilan onasida Narimon (Farida unashtirilgan yigit)ga nisbatan sovuq munosabatni shakllantiradi: “*Keyin bir marta ammam sizni aytdilar. Dam olishga bormadi, ukangning harakatini qilib yuribdi, dedilar. Joningni ber desang berguday, dedilar. Narimonning o‘zi kelmasa chaqirsin edi, tomosha qilib kelar eding, dedilar. Ikki enlik xatga ham loyiq ko‘rmabdi-ya!*” [10. B. 235]. Mazkur harakati bilan Faridada ham o‘ziga nisbatan biroz iliq kayfiyat qayta jonlanishiga erishadi. Qiz uchun qabul komissiyasida Hakimov va Eshonboyevlar bilan birga bilimli nomzodlarni emas, “maxsus ro‘yxat”dagilarni qabul qilish ishlariga aralashib qoladi. Zokir va Faridaning muhabbat *ildizi mustahkam emasligi* uchun nihoyatda tez quriydi.

Mohiyatan, Mahkam o‘z sevgisida sobit turgani, ko‘ngli intilgan qizdan hech narsa talab qilmasdan boricha qadrlashi jihatidan Ochildan ustun turadi. Ochil esa tuyg‘ularini ong bilan bo‘ysundirishga uringani bois Zamira bilan bog‘liq ko‘ngilsizliklar bo‘lib o‘tadi. Muallif Ochilni Muhammadjon bilan o‘zaro kontrastlaydi. Muhammadjon obrazi Zokir tipidagi personajdir. U oila qurishdagi o‘z “prinsip” lari bilan “Jinoyat va jazo” asaridagi Petr Petrovich Lujinni eslatadi. Lujin uchun uylanadigan qizi kambag‘al oiladan bo‘lishi, shu jihatdan turmush o‘rtog‘ini *botqoqlikdan olib chiqqan valine’mat* sifatida ko‘rishi kerak edi. Lujin Dunya Raskolnikovaga muhabbat qo‘ygani uchun emas, balki o‘zining ko‘zlagan maqsadiga mos bo‘lgani. Xuddi shunday tashqi ko‘rinishi normal (hatto boshqalardan ancha xushbichim), kichik amaldor (partorg), aspirant yigit – Muhammadjonning ham ichki dunyosi nihoyatda tuban edi. Ayni jihatini berkitish uchun “onasi o‘pmagan” qizga asl yuzini ko‘rsatmasdan sovchi orqali uylanish, qizda sirli bir kishi sifatida taassurot qoldirishni maqsad qilgan edi: “*Bunday qiz do‘stlashib yurmasdan, ichki dunyosini o‘rganaman demasdan, faqat tashqi qiyofasini ko‘rib, tafsilotlarini kishilardan eshitib, ota-onalar vositasi bilan uning quchog‘iga kelishi kerak edi. Shunda Muhammadjon har xil gaplardan iztirob chekmas, o‘zini tushuntirish, qizni tushunish tashvishlaridan xolos bo‘lardi*” [10. B. 352]. Zamiraning yigitlar bilan munosabat o‘rnatmaslik haqidagi qarori Muhammadjonga juda qo‘l keladi. Muhammadjon singlisi Basti orqali Zamirada sirli, odobli, ilmparvar kishi sifatida taassurot uyg‘otadi. U Zamiraga nisbatan qilgan jirkanch harakatlari orqali unga munosib emasligini ko‘rsatib qo‘yadi – o‘zini fosh qiladi.

M.Sheraliyeva Erkin A’zam asarlaridagi initsiatsiya sinovidan o‘ta olmagan antagonist qahramonlar “ulg‘aymaganlikdan paydo bo‘ladigan bo‘shliqni boylik, mansab, dabdaba, ayollar orqali to‘ldirish bilan band bo‘lishi” [6. B. 76] haqida yozadi. Pirimqul Qodirovning “Qora ko‘zlar” romanida go‘zal qiz aka va ukaning asl maqomini ko‘rsatish uchun o‘zgacha funksiya bajaradi. Avaz va Ortiqning munosabatlari sovuqlashishiga Avazning Xolbek (Ortiqning qayinukasi) bilan unashtirilgan qizni yoqtirib qolishi sabab bo‘ladi. Avazning Hulkar bilan yaqin munosabat o‘rnatishi Ortiqqa xiyonat bo‘lib ko‘rinadi. Ortiq amaldor qaynotasi ko‘ziga yomon ko‘rinmaslik uchun ham ukasi tomonga yon bosmaydi. Garchi ukasini akalik mehri bilan yaxshi ko‘rsa-da, qaynotasining izmidan chiqa olmaydi. Uning laganbardorligi, yaltoqlanishi, g‘ursizligidan Avaz doim uyaladi. Ortiq qaynotasi va xotini ta’sirida Avaz va Hulkarni yengiltabiat kishilar sifatida ko‘rishga o‘rganadi, ukasi uylangach, “ukam menga yomonlik qilganda qaynotam yaxshilik qilgan” deb qaynotasi oldiga ko‘chib ketadi. Uning uchun eng qadrli va asosiy narsa mansabidan ayrilmaslik edi: “Otda ko‘p yurib o‘rgangan Ortiq endi mototsikl egaridan tushmaydi. Egardan tushsa umri barbod bo‘ladigandek qo‘rqadi” [11. B. 14]. Avaz va Hulkarning bir-biriga ishonch bilan barpo etilgan go‘zal hayoti Ortiq va Suyimaning sof his-tuyg‘ularga begona, zerikarli, bir xil hayotidan keskin farq qiladi.

Odil Yoqubovning “Oqqushlar, oppoq qushlar...” romanidagi Muzaffar Farmonov ham Oysuluvga erisha olmaganlik kemtigini go‘zal qizga uylanish bilan to‘ldirishga harakat qiladi *“...lekin odam bolasi g‘alati ekan: ahyon-ahyonda o‘sha, bo‘z bolalik paytida shaydo bo‘lgan Oysuluvni eslasa... hanuz ko‘ngli*

g‘alati bo‘lib ketadi-yu, dilida yomon tuyg‘ular g‘imirlay boshlaydi” [12. B. 61]. E’tibor beradigan jihati, mazkur kemtik farzandining hayotida ham davom etadi. Otasining ziyoli do‘sti Rasulning qiziga oshiq bo‘lgan, lekin undan rad javobini olgan Fotih Muzaffarov boshqa chiroyli qizga uylanadi. Nigoraning uni rad etishi, bolalik yillarida ham uning o‘zidan ko‘ra Shoqosimga yaqinligi g‘ashini keltiradi. Sovchilarning rad javobini olishida Shorahimning qo‘li bor degan gumonda bo‘ladi. Nigoraga yetisha olmaganlik alamida Shorahim shovvozning kelini – Mehrinisoni yo‘ldan urishga harakat qiladi. Xalq ertaklaridagi katta o‘g‘illarning ukasini quduqda qoldirib, qizni o‘g‘irlab qochish syujeti realistik tarzda transformatsiyalanadi. Mehrinisoni olib ketayotgan Fotih Shoqosimning mashinasini qasddan urib yuboradi va qo‘rqqanidan chalajon qilib tashlab ketadi. Muzaffar Farmonov Mehriniso kabi go‘zal ayolning Shoqosimga nasib etganini o‘ylar ekan, “Uzumning yaxshisini it yeydi” [12. B. 163] degan xulosaga kelishida Muzaffarning o‘zidan quyi mavqedagilarga munosabatini ko‘rish mumkin.

Usmon Azimning “Bir qadam yo‘l” dramasida arxetipik sxemadan og‘ish kuzatiladi. Qahramonlarning uchovi ham initsiatsiyadan to‘liq o‘ta olmaganlikdan iztirobga tushadi. Dramada keksayib qolgan otaning Samarqandga borish istagi-yu uch o‘g‘ilning turli sabablar tufayli otasini Samarqandga olib borishga ulgura olmasligi voqealari tasvirlanadi. Kitobxon dastlab katta o‘g‘il Jo‘raning rais sifatida xizmat vazifalari ko‘p ekanligi, o‘rtancha o‘g‘il Shokirning qishloqqa endi qaytishi, kenja o‘g‘il Qosimning afg‘on urushi sabab kasallikka chalingani otani Samarqandday azim shaharga borishiga to‘sqinlik qilishi tarzidagi tashqi sabablarni ko‘radi. Bizningcha, qahramonlarning Samarqandga bora olmaslik sababi tashqi ta’sirlar bilan bog‘liq emas.

Uch aka-uka uchun Samarqand xronotopi initsiatsiya sinovidan o‘tish joyi ekanligini sezish qiyin emas. Muallif afsonaviy va boqiy Samarqand shahrini qahramonlar uchun muqaddas bo‘lgan makon sifatida talqin etadi. Albatta, arxetip invariantidagidek ota safarga yuboruvchi vazifasini bajargan: *“Ishonasizmi, otam Samarqandni yod biladilar. Gapirtirib bemalol Samarqandning xaritasini chizish mumkin. Bizlarga ham bolaligimizdan Samarqandni gapiraverganlar, gapiraverganlar... Kallamizga singib ketgan ekanmi, uch aka-uka ham Samarqandda o‘qidik*” [13. B. 181].

Samarqandga yeta olmaslik sababi o‘tmish xotiralari – yigitlardan birining safardan mukofot bilan qaytmagani (katta o‘g‘il), boshqasining mukofotini tortib olib o‘zlashtirgani (o‘rtancha o‘g‘il), uchinchisining esa mukofot bilan taqdirlanmaganligiga (kichik o‘g‘il) bevosita bog‘liq.

Katta o‘g‘il Jo‘ra rais sifatida ishlari ko‘p ekanligi uchun emas, balki erishilmagan muhabbati bilan bog‘liq og‘riqli xotiralar borligi bois yigirma yildan buyon Samarqandga qadam bosmagan: “*Uni birinchi bor o‘sha qayrag‘ochning tagida ko‘rgan edim. Oxirgi marta ham o‘sha joyda ko‘rdim... Eri bilan mashinalarida o‘tib ketishdi. Ichim kuyib ketdi... Shundan buyon u tomonga borolmayman*” [13. B. 172]. Hayotini ishiga, jamoa xo‘jaligi rivojiga bag‘ishlagani holda oilasi, ayoliga u qadar e’tibor ko‘rsatmaydi.

O‘rtancha – badavlat o‘g‘ilda ham Samarqandga bora olmaslikning sababi jiddiy. Shokir Samarqandda o‘qib yurgan kezlarida Beg‘amga oshiq bo‘lgan. Beg‘am uni rad etganiga, ko‘ngil qo‘ygan kishisi borligiga qaramay, xiyla yo‘li bilan unga uylanishga erishgan. Ayoli o‘g‘li borligi uchungina Shokir bilan yashab yurgani ma’lum bo‘ladi: “*Men ham Samarqandimga borolmayman. Aka, Samarqandim meni yomon ko‘radi. Men uni tavof qilaveraman, tavof qilaveraman, u nima qilyapsan ham demaydi*” [13. B. 172]. Garchand Shokir Beg‘amga erishgan bo‘lsada, qalbining tub-tubida unga munosib bo‘la olmaganlik jarohati mavjud.

Shokirning boshqalardan ustunroq bo‘lish istagi bolalikdan shakllangan. Badavlat kishining o‘rtahol odamga nisbatan boshqaruvchilik, hukmronlik qilishini erta yoshlikdan anglagan yigit “boy bo‘laman” deb uydan chiqib ketgan, turli vositalar yordamida niyatiga erishgan bo‘lsa-da, unda haqiqiy qahramon bo‘la olmaganlik alami bor.

Qosimdagi holat biroz boshqacharoq. Akalari yoqtirgan qizlar ularni butkul rad etgani holda Qosim va Salima bir-biriga ko‘ngil qo‘ygan. Lekin qiz oilasidagilar sabab dadil jasorat ko‘rsata olmaydi. “*Gapi yerda qolganini sezgan*” Qosim afg‘on urushiga yozilib, urushga ketadi. Urushdan qaytgan Qosim jarohatlari tufayli bemor bo‘lib qoladi. Kichik o‘g‘ilning harakatlarida mukofotsiz qoldirilgan kishining ruhiy zo‘riqishlari aks etadi. Butun dunyosi mana shu “ayb” sabab ostin-ustun bo‘lib ketgan Qosim donorlik bilan o‘zini ovutishga urinadi. Garchi Qosim mukofotga erisha olmagan bo‘lsa-da, arxetipik sxemadagi singari uchlik orasidagi eng jasur va mard ekanligi Bozorboyevga munosabatlarida ko‘rinadi. Shokir Eshmamatov va Bozorboyev kabilardan nafratlanib, kinoyaviy munosabatda bo‘lsada, “qop”ining to‘lishi uchun shunday kishilar bilan munosabatdan manfaatdorligi sezilib turadi. Soxta dindorlar, soxta vatanparvarlarning harakatlari uning g‘ashini keltiradi.

Xulosa

Xulosa qilinsa, sarandipizm motivi, asosan, detektiv asarlarda qahramonning maxsus xususiyatlarini bo‘rttirib ko‘rsatish uchun qo‘llansa-da, ayrim asarlarda yondosh motiv sifatida ham ishtirok etishi mumkin. Go‘zal malika/ pari/qiz obrazi personaj uchun muhim ahamiyat kasb etib, uning individuallashuviga ta’sir etadi.

Adabiyotlar:

1. *Jung Carl Gustav*. The spirit in man, art and literature. The Collected Works of C.G.Jung. Volume 15. Bollingen Series XX. – New Jersey: Princeton university press. 1978. – 192 p.

2. *Мелетинский Е.М*. О литературных архетипах. – Москва: Российский государственный гуманитарный университет, 1994. – 136 с.

3. *Чалисова Н*. “Уликовая парадигма” в персидской классике: принцы из Сарандипа и прочие чтецы следов. // Ориенталистика. – 2021.Т. 4. – №4. – С. 1033–1062.

4. *Гинзбург Карло*. Мифы – эмблемы – приметы. – Москва: Новое Издательство, 2004. – 348 с.

5. *Ёқубов О*. Сайланма: 3 жилдлик. 3-жилд. Эр бошига иш тушса: Роман, қиссалар, ҳикоялар, этюдлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 528 б.

6. *Шералиева М*. Эркин Аъзам насрида инициация мотиви // Илмий хабарнома – Научный вестник. – 2019. – №2. – Б. 73–79.

7. *Пропп В*. Исторический корни волшебной сказки. – Ленинград: Издателстьво Ленинградского университета, 1986. – 362 с.

8. *Maria-Louise von Franz.* Interpretation of fairytales. – New York: Spring Publications, 1971. – 164 p.

9. *Бабаевский С.* Ўғил исёни. Роман. –Тошкент: Ёш гвардия, 1963. – 530 б.

10. *Қодиров П.* Уч илдиз. Роман. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 416 б.

11. *Қодиров П.* Қора кўзлар. Роман. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 285 б.

12. *Ёқубов О.* Оққушлар, оппоқ қушлар... Роман. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 336 б.

13. *Азим У*. Жоду: ҳикоялар, эссе, драматик асарлар, кинодостон. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 335 б.

ARCHETYPICAL IMAGE OF THE THREE BROTHERS AND INITIATIVE MOTIVES

Fotima O. Mamtaliyeva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2025. 5(89). 77-83.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *archetypal image of three brothers, initiation, sarandipism, beautiful princess, false hero, archetype, archetypal motif.*

This article examines several initiation motifs within the archetypal schema of the three brothers – serendipism and reward motifs. the significance of these motifs in the hero’s life and their origins in folk tales are explored, as well as variants in Odil Yakubov’s novels “It’s not easy to become a man...”, “White-white swans”, Pirimkul Kadirov’s “Three roots” novels and Usman Azim’s drama “Just one step”.

Also, the article analyzes the motif of sarandipism associated with the archetype of the three brothers for the first time in Uzbek prose. Serendip-

ism is the motif of the three brothers achieving accidental success based on their thinking and logic, and is considered on the example of the heroes of Odil Yakubov.

Based on the theory of one of Carl Jung's students, Maria-Louise von Franz, the blocks of the initiation motif in the archetypal scheme of the three brothers were studied, and the theoretical ideas of literary critic M. Sheraliyeva were used in the analysis.

In folk tales, we find two variants of this archetypal motif:

a) When the three brothers are not contrasted with each other, the girl that the hero (most often the youngest son) has won is taken away/attempted to be taken away by another rival (the king) (for example, "Kilichkara");

b) When the members of the three brothers paradigm are opposed to each other, usually the older sons take away/attempt to take away the beautiful girl from the younger ones (for example, "Bulbuligoyo", "Kenja batyr").

For the hero, a beautiful girl is the main condition for ensuring individuality, and variations of the motif of the false hero's thefting and escape and his attempt to escape from her in modern Uzbek prose were compared.

In Usman Azim's drama "Just one step", a deviation from the archetypal scheme is observed. All three heroes suffer from the inability to fully undergo initiation. The drama describes the desire of an aging father to go to Samarkand and the inability of three sons to take their father to Samarkand for various reasons. The reader initially sees external reasons such as the eldest son Jora's many official duties as chairman, the middle son Shokir's return to the village, and the youngest son Qasim's illness due to the Afghan war preventing his father from going to a great city like Samarkand. In our opinion, the reason why the heroes cannot go to Samarkand is not related to external influences.

It is explained with examples that the reason the brothers were unable to visit Samarkand was because they failed the initiation test.

References:

1. Jung, C.G. (1978). *The spirit in man, art and literature* [The spirit in man, art and literature]. New Jersey:Princeton University Press.

2. Meletinskij, E.M (1994). *O literaturnyh arhetipah* [About literary archetypes]. Moscow: Rossijskij gosudarstvennyj gumanitarnyj universitet.

3. Chalisova, N. (2021). *Ulikovaya paradigma" v persidskoj klassike: princy iz Sarandipa i prochie chtecy sledov* [The "evidential paradigm" in Persian Classics: princes from Sarandip and other clue interpreters]. *Orientalistica*. Vol. 4. No 4. Pp.1033-1062.

4. Ginzburg, K. (2004). *Mifi – emblemi – primeti* [Myths – emblems – signs]. Moscow: Novoe Izdatelstvo.

5. Yoqubov, O. (1987). *Saylanma. Er boshiga ish tushsa* [Election. It's not easy to become a man...]. Tashkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.

6. Sheralieva, M. (2019). Erkin A'zam nasrida initsiatsiya motivi [The Motif of Initiation in Erkin A'zam's Prose]. *Ilmiy xabarnoma – Nauchnyj vestnik*. No 2. Pp. 73-79.

7. Propp, V.Y. (1986). *Istoricheskiy korni volshebnoy skazki* [Historical roots of the fairy tale]. Leningrad: Izdatelstvo Leningradskogo universiteta.

8. Maria-Louise von Franz. (1971) *Interpretation of fairy tale* [Interpretation of fairy tale]. New York.

9. Babayevskij, S. (1963). *O'g'il isyoni* [Filial rebellion]. Tashkent: Yosh gvardiya.

10. Qodirov, P. (1979). *Uch ildiz* [Three roots]. Tashkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.

11. Qodirov, P. (1983). *Qora ko'zlar* [Black eyes]. Tashkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.

12. Yoqubov, O. (1988). *Oqqushlar, oppoq qushlar...* [White-white swans]. Tashkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.

13. Azimov, U. (2003). *Jodu: hikoyalar, esse, dramatik asarlar, kinodoston* [Glamour: stories, essays, dramatic works, epics]. Tashkent: Sharq.

Muallif haqida ma'lumot:

MAMTALIYEVA Fotimaxon Odiljon qizi – Andijon davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: fotimamamtaliyeva@gmail.com